



Oliya QODIROVA,

Tadqiqotchi

E-mail: oliyaqodirova33@gmail.com, ORCID 0009-0001-7049-8292

Dotsent Sh. Nuriddinov taqrizi asosida.

“LISON UT TAYR” DOSTONI QO'LYOZMALARINING TARQALISH GEOGRAFIYASI VA MATNSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI.

Аннотация

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni qo'lyozmalarining dunyo qo'lyozma fondlarida tarqalish doirasi hamda ularning matnshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy qiymati tahlil qilinadi. Boku, Tbilisi, Parij, Xitoy va Sharqiy Turkiston fondlarida saqlanayotgan nusxalarning o'ziga xos xususiyatlari yoritilib, ularni qiyosiy o'rganishning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi o'rni asoslanadi. Tadqiqot natijasida qo'lyozmalarni kompleks tahlil qilish Navoiy asarlarining matniy tarixini aniqlashda muhim manba ekanligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Lison ut-tayr, qo'lyozma, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, qo'lyozmalar fondi, tarqalish geografiyasi, nusxashunoslik.

THE GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF THE MANUSCRIPTS OF LISON UT-TAYR AND THEIR SIGNIFICANCE IN TEXTUAL STUDIES

Annotation

This article examines the geographical distribution of the manuscript copies of Alisher Navoi's Lison ut-Tayr and evaluates their significance from a textual criticism perspective. The study analyzes manuscripts preserved in the collections of Baku, Tbilisi, Paris, China, and Eastern Turkestan, highlighting their distinctive textual characteristics and scholarly value. It argues that a comparative examination of these sources provides a reliable foundation for reconstructing the authentic text and contributes to a deeper understanding of the manuscript tradition of Navoi's literary heritage.

Keywords: Alisher Navoi, Lison ut-Tayr, manuscript, textual criticism, critical edition, manuscript collections, geographical distribution, philology.

ГЕОГРАФИЯ РАСПРОСТРАНЕНИЯ РУКОПИСЕЙ ПОЭМЫ “ЛИСОН УТ-ТАЙР” И ИХ ЗНАЧЕНИЕ В ТЕКСТОЛОГИИ

Аннотация

В статье рассматриваются география распространения рукописей поэмы Алишера Навои «Лисон ут-тайр» и их значение для текстологических исследований. Анализируются рукописные списки, хранящиеся в собраниях Баку, Тбилиси, Парижа, Китая и Восточного Туркестана, раскрываются их текстовые особенности и научная ценность. Особое внимание уделяется сравнительному изучению рукописей как важной основе подготовки научно-критического текста и исследования истории произведения.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Лисон ут-тайр», рукопись, текстология, научно-критический текст, рукописные фонды, география распространения, филология.

Kirish. Alisher Navoiy ijodi turkiy xalqlar yozma madaniyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning asarlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston strategiyasi” asarida milliy til va madaniyatni chuqur o'rganish hamda turkiy xalqlar merosini ilmiy tadqiq qilish istiqbollari haqida shunday deydi: “Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va o'z ildizlariga qaytish yo'lida buyuk ajdodlarimizning boy merosini o'rganish va keng targ'ib etish eng muhim vazifalarimizdan biridir”[1]. Xususan, “Lison ut-tayr” dostoni nafaqat badiiy-estetik va tasavvufiy mazmuni, balki boy qo'lyozma an'anasi bilan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur maqolaning maqsadi “Lison ut-tayr” dostoni qo'lyozmalarining tarqalish geografiyasini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, ularning matnshunoslikdagi o'rini baholash hamda qo'lyozmalarni qiyosiy o'rganishning ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashdagi ahamiyatini yoritishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Adabiyotlar sharhi. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, asarning genezisi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, matniy tarixi hamda adabiy ta'sirini yoritishga qaratilgan[2]. Bu borada Sh. Sharipovning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. Olim dostonning yaratilish tarixi, manbalari, badiiy

tizimi, hikoyatlar kompozitsiyasi hamda o'zbek adabiyotidagi o'rini izchil tadqiq etib, Navoiy ijodining turli qirralarini ochib bergan. Dostonning tekstologik xususiyatlari Sh. Eshonxo'jayev tomonidan maxsus o'rganilgan[3]. Tadqiqotda mavjud qo'lyozmalarni qiyoslash, matniy tafovutlarni aniqlash, nusxalar o'rtasidagi qarindoshlikni belgilash hamda ilmiy-tanqidiy matnni tiklashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Bu yondashuv keyingi matnshunoslik izlanishlarining metodologik negizini tashkil etadi. “Lison ut-tayr”ning ilmiy nashrlari, xususan, Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami hamda dostonning nasriy bayoni matnini o'qish, qiyoslash va talqin etishda muhim manbalar sifatida xizmat qiladi[4]. Ushbu nashrlar asarning turli variantlarini o'rganish va matndagi ayrim o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda “Lison ut-tayr”ning genezisi, poetikasi, tekstologiyasi va adabiy ta'siri yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, doston qo'lyozmalarining dunyo qo'lyozma fondlari bo'ylab tarqalish geografiyasi hamda ushbu nusxalarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdagi o'rni maxsus tadqiqot obyekti sifatida to'liq yoritilmagan [2]. Mazkur maqola aynan shu masalani tahlil qilish orqali mavjud ilmiy qarashlarni to'ldirishni hamda “Lison ut-tayr” qo'lyozmalarining matniy tarixini aniqlashdagi ahamiyatini yangi ilmiy dalillar asosida asoslashni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiy-filologik, qiyosiy-tahliliy va matnshunoslik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini “Lison ut-tayr” dostonining turli mamlakatlar qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan nusxalari hamda ushbu yo‘nalishda yaratilgan ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Qo‘lyozmalar haqidagi katalog ma’lumotlari va ilmiy tavsiflar o‘zaro solishtirilib, ularning matnii xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy metod asosida qo‘lyozmalarining ko‘chirilish davri, saqlanish joyi, tarkibiy tuzilishi va matnii farqlari o‘rganildi. Tavsifiy tahlil yordamida har bir nusxaning o‘ziga xos jihatlari yoritildi, tarixiy yondashuv orqali esa doston qo‘lyozmalarining tarqalish geografiyasi va ularning shakllanish omillari baholandi. Shuningdek, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari asosida olingan ilmiy natijalar bir butun holda tahlil qilinib, qo‘lyozmalarining ilmiy-tanqidiy matnii yaratishdagi ahamiyati xulosalandi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchligini ta’minlash hamda “Lison ut-tayr” qo‘lyozmalarini matnshunoslik nuqtai nazaridan xolis baholash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Alisher Navoiy ijodi turkiy xalqlar adabiy merosining eng yuksak namunalari biri hisoblanadi. Shoirning “Lison ut-tayr” dostoni nafaqat badiiy va falsafiy mazmuni, balki qo‘lyozma an’analari bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarning turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari bugungi kunda Sharq qo‘lyozmalari saqlanayotgan ko‘plab fondlarda mavjud bo‘lib, ular matn tarixini tiklash, nusxalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash hamda ilmiy-tanqidiy matnii yaratishda asosiy manba vazifasini bajaradi. “Lison ut-tayr” qo‘lyozmalarining geografik jihatdan keng tarqalganligi asarning o‘z davridayoq katta shuhrat qozonganidan dalolat beradi. Ozarbayjon, Gruzia, Fransiya, Xitoy hamda Sharqiy Turkiston hududlarida aniqlangan qo‘lyozmalar Navoiy merosining xalqaro miqyosda tarqalganini ko‘rsatadi. Har bir qo‘lyozma o‘ziga xos matnii xususiyatlarga ega bo‘lib, ularni qiyosiy o‘rganish matnshunoslik nuqtai nazaridan muhim ilmiy natijalarni beradi. Boku qo‘lyozmalar fondidagi “Lison ut-tayr” nusxalari Ozarbayjon Fanlar akademiyasining Respublika qo‘lyozmalar fondi Alisher Navoiy asarlarining muhim qo‘lyozma markazlaridan biri sanaladi. Ushbu fond tarkibida shoirning “Xazoyin ul-maoniyy”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Majolis un-nafois” kabi asarlari bilan bir qatorda “Lison ut-tayr” dostonining ham ikki qo‘lyozma nusxasi saqlanmoqda [2]. Fondagi eng qadimiy nusxalardan biri C-130 inventar raqami bilan qayd etilgan bo‘lib, u hijriy 944-yilda nasta’liq yozuvida ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozmaning muhim xususiyatlaridan biri unda “Shayx San’on” hikoyasining uchramasligidir.

Fondga saqlanayotgan ikkinchi nusxa D-312 inventar raqami ostida ro‘yxatga olingan bo‘lib, hijriy 1237-yilda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozma keyingi davr nusxalaridan biri bo‘lsa-da, matnning saqlanish darajasi hamda nusxalararo tafvutlarni aniqlashda muhim manbalardan hisoblanadi.

Tbilisi qo‘lyozmalar fondidagi “Lison ut-tayr” nusxasi Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalari saqlanayotgan muhim markazlardan yana biri Gruzia Fanlar akademiyasi

Qo‘lyozmalar fondidir. Mazkur fond tarkibida fors-tojik, ozarbayjon va o‘zbek tillarida yaratilgan ko‘plab yozma manbalar jamlangan bo‘lib, ular orasida Navoiy asarlari ham alohida o‘rin egallaydi. Ushbu qo‘lyozmalar orasida “Lison ut-tayr” dostonining bitta nusxasi aniqlangan bo‘lib, u hijriy 1227 (milodiy 1812) yilda ko‘chirilgan. Qo‘lyozma C-24 inventar raqami bilan ro‘yxatga olingan [3]. Mazkur nusxa son jihatdan yagona bo‘lsa-da, matnshunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilmiy-tanqidiy matnii tayyorlash jarayonida har bir qo‘lyozma alohida manba sifatida baholanadi. Nusxaning boshqa qo‘lyozmalar bilan qiyosiy o‘rganilishi matndagi tafvutlarni aniqlash, ayrim o‘rinlardagi o‘zgarishlarning sabablarini izohlash hamda asarning matnii taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi. Ayrim tadqiqotchilar “Lison ut-tayr” qo‘lyozmalarining faqat davlat fondlarida emas, balki shaxsiy kutubxonalarda ham uchrashi mumkinligini qayd etadilar. Bundan tashqari, hali to‘liq kataloglashtirilmagan qo‘lyozmalar fondlarida ham ushbu dostonning noma’lum nusxalari saqlanayotgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlar natijasida asarning yangi qo‘lyozmalari aniqlanishi mumkin. “Lison ut-tayr” dostonining ilmiy-tanqidiy matnii yaratilishida sobiq ittifoq hududidagi qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan nusxalar asosiy manba vazifasini bajargan. Ayniqsa, Boku, Tbilisi va Sankt-Peterburg fondlaridagi qo‘lyozmalarni qiyoslash orqali matnning ishonchli variantini tiklash imkoniyati yuzaga kelgan [3]. Bu esa matnshunoslik tadqiqotlarining ilmiy asoslanganligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chet el qo‘lyozmalar fondlarida saqlanayotgan nusxalar “Lison ut-tayr” dostonining qo‘lyozmalari faqat sobiq ittifoq hududidagi fondlar bilangina cheklanmaydi. Asarning qo‘lyozma nusxalari Yevropa va Osiyoning bir qator yirik qo‘lyozmalar markazlarida ham saqlanmoqda. Bu holat Navoiy ijodining keng hududlarga tarqalganini hamda uning asarlari turli madaniy muhitlarda mutolaa qilinganini tasdiqlaydi. Sharqshunos olim S. L. Volin XX asr o‘rtalarida olib borgan tadqiqotlarida Parij Milliy kutubxonasida “Lison ut-tayr”ning qo‘lyozma nusxalari mavjudligini qayd etgan. Keyingi izlanishlar esa dostonning boshqa xorijiy qo‘lyozmalar fondlarida ham saqlanayotganini ko‘rsatdi. Bu ma’lumotlar asarning tarqalish geografiyasi avval o‘ylanganidan ancha keng bo‘lganini tasdiqlaydi. Xitoy Xalq Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi qo‘lyozmalar fondida ham Alisher Navoiy asarlarining bir qator qo‘lyozmalari mavjud. Ular orasida «Lison ut-tayr» nusxasi alohida e’tiborga sazovor.

Xulosa. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni qo‘lyozmalarining Boku, Tbilisi, Parij, Xitoy va Sharqiy Turkiston fondlarida saqlanayotgani asarning keng hududlarga tarqalganini ko‘rsatadi. Mazkur qo‘lyozmalar orasidagi matnii farqlar dostonning ko‘chirilish tarixini, kotiblar faoliyatini va matnning rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mavjud qo‘lyozmalar «Lison ut-tayr»ning ilmiy-tanqidiy matnini takomillashtirishda asosiy manba vazifasini bajaradi. Kelgusida hali kataloglashtirilmagan qo‘lyozmalar fondlarini o‘rganish hamda yangi nusxalarni ilmiy muomalaga kiritish Navoiyshunoslik va matnshunoslik sohasida muhim ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 10-b.
2. Sharipov Sh. Alisher Navoiy «Lison ut-tayr» dostonining genezisi va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1982.
3. Eshonxo‘jayev Sh. «Lison ut-tayr» dostonining tekstologik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 1984.
4. Navoiy A. Lison ut-tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan.
5. “Лисон ут-тайр” (Куш тили). Насрий баён муаллифи Ш.Шарипов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 198 б.
6. Навоий ва ижод сабоқлари. – Тошкент: Фан, 1981. – 160 б.
7. Назаров М. “Лисон ут-тайр” сирлари // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 1984. – № 5. – Б. 204.
8. Шарипов Ш. “Лисон ут-тайр” ҳақиқати. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 60 б.
9. Шарипов Ш. “Лисон ут-тайр” нинг яратилиши тарихидан // Адабий мерос. – Тошкент, 1980. – №3. – Б. 22-28.
10. Шарипов Ш. Алишер Навоий – моҳир ҳикоянавис (“Лисон ут – тайр” материаллари асосида) // Адабий мерос. – Тошкент, 1978. – № 11. – Б.82-89.
11. Шарипов Ш. Алишер Навоий “Лисон ут-тайр” дostonининг ўзбек адабиётига таъсири масаласига доир // Адабий мерос. – Тошкент, 1977. – № 8. – Б. 48-57.